



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi maktabgacha ta'lim agentligi

_____ huzuridagi maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshqarmasi _____ maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshqaruvidagi _____-maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik guruh ta'limiyachisi

_____ning "Ilk qadam" _____ dasturi asosida "Sabavot va mevalar" maktabgacha tashkillangan

FAOOLIYAT ISHLANMASI

(Avgust oyining 1-haftasi)

School Bus

vab-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan
+99890-530-88-18 nomerga murojaat
qilishingiz jek456 izlab telegramga yozishingiz
yoki shu nomerdagi telegram orqali
bog'lanishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi
Kichik guruhlarga avgust oyi 1-hafta "Sabzavot
va mevalar" mavzusida markazlar bo'yicha
tayyorlangan faoliyat ishlanmani to'liq holda
olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 5 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Nabiyev Zokirjon plastik egasi



DIQQAT!!!

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng

yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga

joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Guruh: Kichik guruhlar uchun

Oy mavzusi: QUVNOQ VA SOG`LOM BOLALAR

Hafta mavzusi: Sabzavot va mevalar

Maqsad: bolalarning tevarak-atrofga doir tushuncha va bilimlarini chuqurlashtirish, soʻz boyligini oshirish, son-sanoq, geometrik shakllar haqidagi tushunchalarini mustahkamlash, matematika faoliyatida egallagan bilimlarini faollashtirish. Kichikintoylarda kattalar mehnatiga qadrlash hissinini rivojlantirish. Applikatsiya orqali sabzavot va mevalar tayyorlash malakasini oʻstirish, tartibli ishlash, ish jihozlaridan toʻgʻri foydalanish koʻnikmasini faollashtirish. Sabzavot va mevalar nomi, tashqi koʻrinishiga doir bilimlarini ogʻzaki bayon etish koʻnikmasini mustahkamlash. Mantiqiy savol-topshiriqlarni bajarishda mustaqil fikrlashni erkin bayon etish madaniyatini rivojlantirish, tabiatga doir tushunchalarini umumlashtirishda yordam berish.

Kerakli jihozlar: proyektor, ekran, slayd, sahnalash joylari va mevalarning asli hamda mulyaji, xaltacha, suratli kartalar, qopcha, sabzavot va meva boʻlaklari, choʻp, oq qogʻoz, yelim, moʻyqalam, salfetka, taʼlimiy oʻyinlar va mantiqiy oʻyinlar kitoblari.

Faoliyatda bolalar faoliyatini oʻzaro bogʻlanishi:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarida foydalanish;
- badiiy adabiyat;
- matematik taʼlim usullari;
- jismoniy harakat;
- tevarak-atrof tushunchalari;
- mantiqiy fikrlash;
- tasviriy faoliyat;
- mantiqiy oʻyinlar.

Faoliyatning borishi:

TARBIYACHI: — Bolajonlar, qish faslida kasal boʻlmaslik uchun biz qaysi meva va sabzavotlardan koʻproq isteʼmol qilamiz? Bolalar javobi. — Juda toʻgʻri, piyoz, sarimsoq, limon va olmalar juda foydali. Piyoz va sarimsoqni bir soʻz bilan nima deb aytamiz? — Sabzavot. Olma bilan limonni-chi? — Meva.

Qarang, stolda meva va sabzavotlar koʻp ekan, ularning nomi, qayerda



o'sishi, shakli va rangini aytib beringlarchi.

Endi, mana bu rasmlari kartochkalarni oling. Ularda qaysi meva va sabzavotlar tasvirlangan? Ular qayerda pishadi? Mevalarni kim yetishtiradi? Sabzavotlarni kim o'stiradi? Kartochkalarni tegishli joyga qo'yib chiqamiz. Shu yo'l bilan bolalar ikki guruhga bo'linadi — "Mevalar" va "Sabzavotlar".

— Men sabzavot va mevalar haqida topishmoq aytaman, siz javoblarini aytasiz, kelishdikmi?! (*AKT dan foydalanish*)

— Bolalar, siz bu meva va sabzavotlar haqida she'rlar yodlagandingiz. Qani, kim aytib beradi? Bolalar yod olgan she'rlaridan ayting.



TARBIYACHI: — Bolalar, she'rlarni yaxshi yod olibsiz. Hozir esa "Ajoyib xaltachalar" o'yinini o'yinlaymiz. Diqqat bilan o'yin qoidasini bilib oling. Tarbiyachi o'yin qoidasini tushuntiradi. Qo'lingizga ilingan narsaning meva yoki sabzavotligi, shaklini aytib, keyin bizga ko'rsating. Mevalarni bu stolga qo'yamiz, sabzavotlarni esa boshqa stolga. Bolalar, kelinglar, mashq bajarib ozgina dam olamiz. (*Jismoniy daqiqa*)

Sabzi, piyoz va kartoshkani polizdan yig'ib oldik (*1-marta bajarilganda tizzalar bukilmagan, qo'llar pastga uzatiladi, 2-marta bajarilganda tizzalarni bukib o'tirishadi*).

Olma, o'rik va shaftolini bog'imizdan yig'amiz (*1-marta bajarilganda turgan joylarida qo'llar tepaga uzatiladi, 2-bor bajarilganda oyoq uchida ko'tarilishadi*).

olxo 'ri, shaftoli). Pishirib yesa bo'ladigan sabzavotlarni ajratamiz (*kartoshka, sabzi, pomidor, lavlagi, turp, karam*). Sharbat tayyorlash mumkin bo'lganini ajratamiz (*sabzi, olma, pomidor, o'rik*).

TARBIYACHI: — Aziz bolajonlar, faoliyatda juda yaxshi ishtirok etdingiz. Javoblarni to'g'ri, tartib bilan aytdingiz. Menga sizlarning ishtirokingiz yoqdi. Sizlarga bugungi o'yinlarimizdan qaysilari yoqdi? Sabzavot va mevalar haqida bilib olganlaringizni uyda ham mustahkamlashingiz uchun sizlarga kitobchalar beraman. Ustiga nima chizilgan bo'lsa, davom ettirib, xohlasangiz chizing yoki applikasiya qiling. Ularni olib kelsangiz, jihozlarimizga qo'shib, faoliyatlarimizda yana o'ynaymiz. Uyda sizlarga ota-onangiz, aka-opalaringiz yordam berishlari mumkin. Vazifa tushunarlimi? Bolalar javobi. Yaxshi ishtirokingiz uchun yana bir bor rahmat, shuning bilan bugungi faoliyatimizni yakunlaymiz.



Syujetlirolli o'yinlar tashkilotlash markazida

Mavzu: *Sabzavot va mevalar do'koni*

Maqsad: tarbiyalanuvchilar "Do'konda" ta'limiy o'yini orqali yoz oylarida pishadigan sabzavot va mevalar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: AKT, sotuvchi kiyimi, tarozi, yasama pul, meva va sabzavotlar mulyaji.

Faoliyatning borishi:

O'yin jihozlari bilan tanishish.


Rollarni taqsimlash.

O‘yin jarayoni.

Rollarni almashib o‘ynash.

Bolalarni rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha qism: meva va sabzavotli kartochkalarni berib, ularni ajratib, savatchalarga solishni taklif etish.



Fan va tabiat Mavzu: Ta‘midan top

Maqsad: tarbiyalanuvchilar mevalarni ta‘tib ko‘rish orqali ularning ta‘mlarini farqlaydilar, lug‘atini yangi so‘zlar (nordon, shirin) bilan boyitadilar.

Kerakli jihozlar: likopchada mayda qilib to‘g‘ralgan haqiqiy mevalar (olma, uzum, limon, banan, anor), ko‘zni bog‘lash uchun mo‘ljalla, salfetka, mevalar rasmi tasvirlangan kartochkalar. Faoliyatning borishi:

Likopchadagi mevalarni ko‘rib chiqish.

Mevalarni ta‘tib ko‘rish va meva nomi aytilish.

Rasmi kartochkalarni mazasiga ko‘ra (shirin, nordon) ajratish.

Mevalarning foydali tomonlari haqida suhbat.

Bolalarni rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha qism: mevalarning foydali tomonlari videolavha ko‘rishni taklif etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: mevalarning rangiga bo‘yligi va organizm uchun foydasi.

Qurish va konstruksiyalash, namuna bilan

Mavzu: Sabzavotlar uchun omborxonada

Maqsad: tarbiyalanuvchilarning fikr va turli lego konstruktorlardan sabzavotlar uchun omborxonalar quradilar, geometrik shakllarni nomlab ularni sanaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, bloklar, legolar, sabzavotlar saqlanadigan omborxonada tasviri tushirilgan rasmlar.

Faoliyatning borishi:

Sabzavotlar uchun omborxonada mavzusidagi rasmlarni ko‘rib chiqish

Namuna bilan tanishish

Omborxonada qurilishini rejalashtirish

Bolalar ish jarayoni

Bolalarni rag‘batlantirish Alohida e‘tibor qaratiladi: ijodiy yondashish.

San‘at markazi

Mavzu: Hosil yig‘amiz

Maqsad: tarbiyalanuvchilarning qo‘l motorikasi rivojlanadi, ijodiy tasavvuri shakllanadi. Kerakli jihozlar: plastilin yoki loy, taxtacha, salfetka, namuna, sabzavot rasmlari, savatcha. Faoliyatning borishi:

Pomidor, bodring, kartoshka, piyoz, sabzi, qovun, tarvuz, qovoq mulyajlarini ko‘rib chiqish.

Namunalar bilan tanishish.

Bolalar ishlari.

Tayyor ishlar taqdimot-ko‘rgazmasi.

Bolalarni rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: sabzavotlar haqida she‘r va topishmoqlar.

Alohida e‘tibor qaratiladi: ijodiy ishda ozodalik va sarishtalik.

Til va nutq

Mavzu: Meva va sabzavotlarni ajrat

Maqsad: tarbiyalanuvchilar sabzavot va mevalarni farqlay olish lug‘at boyligini oshiradilar, ta‘limiy o‘yinlarga qiziqish bildiradilar.

Kerakli jihozlar: meva va sabzavotlar to‘plami, meva va likopcha, “Meva va sabzavotlar” ta‘limiy o‘yini.

Faoliyatning borishi:

Savatdagi sabzavotlarni va likopchani bolalarni kuzatish.

Meva va sabzavotlar rasmlarini ko‘rib chiqish.

Savatcha va likopchaga sabzavot va mevalar rasmini ajratish va o‘xshash, farqli jihatlarini ta‘shuntirish.

Bolalarni rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: kim qanday sabzavot va mevalarni yaxshi ko‘rishi haqida suhbat.

Alohida e‘tibor qaratiladi: bolalarning lug‘at boyligini yangi so‘zlar bilan boyitish.

